# TILLARNING GLOBALLASHISHI VA RIVOJLANMAGAN DAVLATLAR UCHUN TA'LIMDAGI YANGI IMKONIYATLAR

**Nuriddin Allayev Berdinazar o'g'li**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola dunyo siyosati va jamiyatida allaqachon óz órniga ega bólishga ulgurgan xalqaro tillar va bu tillarda tóplangan malumotlarni, shu tillarni órganish va ulardan foydalanish orqali rivojlanish mumkunligi tóg'risida tayyorlandi.*

**Kalit sózlar:** *Ingiliz tili, Xitoy tili, Ispan tili, Arab tili, Xalqaro til, (Trilingual)lik, Ózbekiston , Turk tili.*

Ingiliz tili . Bu til dunyoda xalqaro komunikatsiya tili deya etirof etiladigan eng yirik tillardan biri hisoblanadi. *XVI* va *XVII* asrlar oralig'ida Buyuk Qirollik (Buyuk Britaniya) tomonidan erishilgan yutiqlar natijasi ólaroq bu til jahon miqqiyosida óz órniga ega bolish bilan bir qatorda tarixda ózi mustamlaka qilgan davlatlariga ham bu tilni yoyish orqali Ingiliz tilni xalqaro maydonga olib chiqa oldi. Ingiliz tilining bir necha yirik davlatlar (Kanada, AQSH, Avstraliya, Buyuk Britaniya va boshqalar) miqqiyosida asosiy davlat tili deb tan olinganligining ozi ham bu tilning qanchalik siyosiy kuchga ega bolganligidan dalolat beradi. Dunyo reytingida top 1000 eng yaxshi oliy talim dargohlarining asosiy óqitish tili bu ingiliz tili sifatida tan olingan hatto bu universititetlar dunyoning turli mintaqalarida joylashgan bolsada.

2022-yilgi hisob kitoblarga qaralganda dunyo boylab ingiliz tilida sózlashuvchi insonlar soni 2 milliarddan oshiqligi kóriladi. Bu korsatgich esa qariyb dunyo aholisining 1/4 qismi bu tildan foydalana olishligi haqida malumot beradi. Har yili dunyo boylab millionlab insonlarning ingiliz tilini órganayotganligi bu tilni XXI asr oxiriga kelib insoniyat foydalanadigan komunikatsiya tilning eng katta qismi bolishiga shubha qoldirmaydi. Katta ehtimol bilan boshqa davlatlar ham kelajakda bu tilni ózining rasmiy davlat tillaridan biri sifatida qabul qilishiga ham ishonishimiz mumkun chunki bu tilni kop davlatlarda fan darajasida óqitilayotganligi bunga sabab bóla oladi lekin dunyodagi 7000 til orasida ingiliz tili bilan teng raqobatlasha oladigan bir necha tillar ham borligi yangilik emas hususan Ispan tili ham . Cervant instituti bergan malumotlarga tayangan holda 595 million inson bu tilni bilishiga ishona olamiz (2023-yil)

va 21.2 million inson Ispan tilini órganayotgani ham bu til yer yuzidagi insoniyat eng kop foydalanadigan tillardan biri ekangligini anglatadi. Dunyoni ózining iqtisodiy salohiyati orqali lol qoldirayotgan davlatlardan biri bólmish Xitoy, óz davlati va uning tashqarisida ham xitoy tilida gaplasha oladigan millarddan ortiq inson avditoriyasiga ega. Biror bir davlatning dunyo miqqiyosida iqtisod sohasida erishgan va erishayotgan yutuqlari shu davlat tilining keyingi global til bolishidan dalolat beradi ammo bu tilni órganishni murakkabligi bois xitoy tili sózlashuvchilar soni boyicha ingiliz tilini ortda qoldirishiga ishonish qiyin. Kelajak avlod xitoy tilini

órganish uchun ingiliz tilini órganishga sarflagan vaqtidan ikki barobar kop vaqt va energiya sarflashi kerak shunga qaramasdan bu tilni dunyo bóylab 200 milliondan oshiq inson bu tilni órgangan va 25 million inson ham bu tilni órganmoqda (2020-yil). Xalqaro ahamiyatga ega tillar haqida gap borar ekan VII va XVII asrlar davomida ilm u marifat va Islom targibotchisi bolgan Arab tili haqida gapirmasak bólmaydi. Bu til dunyoda eng kóp ishlatiladigan beshinchi til bólib 400 milliodan ziyod inson bu tilni kundalik hayotida ishlatishadi (2023-yil). Bu tilni órganuvchilarning asosiy qismi 1.9 milliard musulmonlardir. Yuqorida nomlari keltirilgan ushbu tillar dunyoning ilmu marifat, siyosat va madaniyat tillari deya etirof etiladi chunki shu 4 ta tilda gaplashuvchi insonlarning ozi dunyo aholisining yarmini tashkil qiladi. Hozzirgi kunda malumotlar almashinuvi jarayoni jadallashayotgan bir payitda insonlar orasida ham madaniyat va tillarni órganish jarayoni sezilarli darajada ortib bormoqda. Dunyodagi sodir bólayotgan ayrim voqea va hodisalar insonni , dunyodagi insonlar vaqt ótib borishi bilan yagona tilga birlashishi mumkin degan g’oyani ham bermasdan qoymaydi balki bu holat sodir bolishi uchun bir necha asrlar ketar lekin bugungi bu kelajak haqida aytilayotgan nazariyalar kelgusida haqiqat va keyinchalik esa tarix bólish mumkunligini tushunish qiyin ish emas aslida.

Rivojlanmagan davlatlarning ta’lim va inovatsiya sohalarida tez va nisbatan oson yutuqlarga erishishligi uchun tavsiya etiladigan g’oyam bu : Ingiliz yoki ósha rivojlanmagan davlatdagi millatning tiliga yaqin bolgan Xalqaro tilni órganishdir. Agar bu misolni ózim tugulgan davlat misolida oladigan bolsak Ózbekiston hukumati yoshlarga jahon tillarini órgatish uchun yanada kuchliroq etibor qaratishi manfaatliroq bóladi. Barchamizga malumki dunyodagi ochiq malumotlarning qariyb 70% ingiliz tilida va zamonaviy kasb va sohalarning ham bu til bilan uzviy bog’liqligi biz uchun malumot almashinish uchun yuqori yutuq bolishi aniq. Markaziy osiyodagi eng kuchli eqtisodiy salohiyatga ega bolgan Qozog’iston hukumati ham (trilingual)likni ya’ni uchta keng salohiyatga ega tilni órganish va óqitishga bolgan e’tiborni kuchaytirmoqda. Insonning bittadan kóp tilda muloqot qila olishi uning aqliy salohyatiga ham bevosita ta’sir qilishi bor gap. Agar yangi tilni órganish óz ona tili va madaniyatini unutish evaziga bolsa bu holat bir millatning vaqt ótishi bilan insoniyat tarixidan yóq bólib ketishi demakdir. Ózbekiston miqqiyosidagi birgina 2023-yil hisobiga ko’ra 20 mingdan ortiq yoshlar ingiliz tilidagi xalqaro testda yuqori C1 darajani qolga kiritgan. (2022-yil) Ma’lumotlariga kóra Ózbekistonning 5.43% aholisi ingiliz tilida gapira olishligi qayd etilgan bu esa 2 millionga yaqin mamlakatimiz fuqorosi deganidir. Bu nafaqat ingiliz tilida malumot qabul qila olish balki bu til orqali jahon darajasiga ham chiqish mumkun deganidir. Biz bu tilni órganish orqali bir necha yuzlab yillar davomida ingiliz olimlari tomonidan yozilgan ilmiy manbalarni oson usul orqali qolga kiritishimiz mumkun. Bizning hukumatimiz ta’lim sohasiga Turk tilini órganish va órgatishni keng kólamda joriy etsa bu biz uchun yana bir yangi kutubhonaga yól ochilgandek bólardi sababi (Usmonlilar Imperiyasi) Turkiyaning Órta asirlarda

erishgan ulkan yutuqlari bu tilda ham koplab foydali malumotlar mavjudligini anglatadi. Ayniqsa bu tilning bizning tilimiz bilan óxshashligi hisobiga bu tilni órganish uchun uzoq muqqat talab qilinmaydi. Turk tili dunyodagi 12-órinda turuvchi yirik til guruhi hisoblanadi va unda muloqot qiluvchi insonlar soni 74 milliondan kóp.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. htthttps://www.statista.com/accounts/pa
2. ps://www.dotefl.com/english-language-statistics/
3. https://www.languagemagazine.com/
4. www.chatgpt.com
5. https://www.unesco.org/en